

San'atkor bilan uchrashuv

3 - may kuni Talabalar turar joyida iste'dodli xonanda Jasur Mavlonov bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Tarbiyachi-pedagog, psixolog Dilorom Sagdullayeva boshchiligidagi ijodiy uchrashuv qiziqarli tarzda tashkil etildi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarini berishdi. Eng faol savol bergen talabaga xonanda Jasur Mavlonov disklarini sovg'a qildi. Talabalar tashkil etilgan ijodiy uchrashuvdan juda xursand bo'lganligini aytib o'tishdi va bundan keyin ham Jasur Mavlonovni talabalar yotoqxonasiga tez-tez kelib yangi ijodiy yangiliklardan xabardor etib turishlarini taklif etishdi. Bu ijodiy uchrashuv talabalarning kayfiyatini ko'tarib yanada kuch-g'ayrat bilan ilm olishiga undagani aniq. Magistratura bo'limi "Geodeziya va geoinformatika" yo'nalishi 1-bosqich 105-guruh magistranti Avilova Nilufar shu xususda o'z fikrini bildirib o'tdi. GIM ,GTS ,QSXET, YRM talabalari Tarbiyachi-pedagog Xaitova Aziza GTS, GIM fakulteti dekan o'rinnbosarlari Azimov Azam, Ro'ziboyev Ortiqlar ham qatnashishdi.



Tarbiyachi-pedagog, psixolog Sagdullayeva Dilorom axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov